



“MUKOSHAFATU-L-QULUB” ASARIDA MAONIY ILMIGA XOS SINTAKTIK-STILISTIK USULLARINING QO‘LLANILISHI

Sanoqulova Umida Namoz qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqola Abu Homid G‘azzoliyning “Mukoshafatu-l-qulub” asarida qo‘llangan xabar va insho jumlar tahliliga bag‘ishlangan. Bunda xabar va insho jumlarining berilish prinsiplari, uslublari, fikrni ifodalashda o‘quvchi holatining inobatga olinishi kabi masalalar asardan olingan misollar yordamida ko‘rib chiqiladi. “Kalomning xabar va insho turlari” mavzusi maoniy ilmida o‘rganiladi. Mazkur mavzuni yoritishda tilshunoslikdagi analiz va sintez metodi qo‘llanildi. Shuningdek, qiyosiy, tavsifiy va tahliliy metodlardan ham keng foydalanildi.

Kalit so‘zlar: balog‘at ilmi, maoniy, kalom, holat taqozosi, ifoda maqsadi, xabar jumla, insho jumla, fā‘idatu-l-xabar, lāzimatu-l-fāida, ifodali so‘zlash va bayon qilish, tinglovchining holati, buyruq, inkor, so‘roq.

“Mukoshafatu-l-qulub” asarining matni xabar va insho jumlarining asosiga qurilgan. Balog‘at ilmi maoniy, bayon, badi‘ kabi uch yirik bo‘limni o‘z ichiga oladi. Bulardan maoniy ilmi balog‘at ilmining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur bo‘limda “kalomni vaziyat talab qilgan holatga moslashtirish usul va qoidalarini”¹ o‘rganiladi. “Maoniy ilmi (علم المعاني) fikrni to‘liq ifoda etish uchun grammatik, leksik, badiiylik va poetik vositalarning barchasidan foydalanish qonun-qoidalarini o‘rgangan. O‘zbek

¹ Rustamiy S. Balog‘at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – B.29; 1953. حامد عوني. المنهاج للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتاب العربي بمصر. ص. 5.



tilshunosligidagi stilistik sintaksis maoniy ilmiga yaqin turadi va uning mavzusiga mos keladi”².

Tilda mavjud bo‘lgan turli stilistik va sintaktik vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilganda, avvalo, ularning nutqning qaysi ko‘rinishi uchun xoslanganligi, qo‘llanilish darajasi, emotsional-ekspressivligi inobatga olinadi. Nutqning turli ko‘rinishlariga oid matnlar sintaksisini o‘rganish ma’lum uslubga xos qurilmalarni, shuningdek, matn muallifi tili va uslubiga doir xususiyatlarni aniqlashda muhim o‘rin tutadi. Stilistik sintaksis – [sintaktik](#) shakllarning u yoki bu mavzuga stilistik bog‘liqligini, o‘ziga xoslikni yaratishning sintaktik mexanizmlarini va ularning nutqdagi ekspressiv ahamiyatini o‘rganadi. Sintaksis – bu jummalarni tuzish qoidalarini va ularning matndagi aloqalarini o‘rganadigan grammatikaning bir bo‘limidir. Sintaksisning stilistik manbalariga matnga o‘ziga xos uslub va hissiy rang beradigan sintaktik tuzilmalardan foydalanish xususiyatlari kiradi.

Balog‘atning maoniy bo‘limi tilshunoslikdagi stilistik sintaksisga mazmunan yaqin turadi. Tadqiqotning ushbu faslida Abu Homid G‘azzoliyning “مكاشفة القلوب” (“Qalblar kashfiyoti”) asarida faol qo‘llangan maoniy ilmi usullari asardan olingan misollar yordamida tahlil qilinadi.

“Maoniy ilmi ... tilshunoslik va unda nutq qurilishi bilan bog‘liq sohalarni ham o‘z mazmunida aks ettiradi”³. Balog‘at ilmining bilimdoni Abdulqohir Jurjoniy “grammatik masalalarni mantiqiy hukm bilan tahlil qilishni maoniy ilmining bosh mavzusi deb belgilaydi va bu ilmga oid nazariyasini “دلائل الإعجاز” (“Daloilu-l-i‘jaz”) asarida ochib beradi”⁴.

² Мулласодиқова Н. М. Қуръонда “маъоний илми”нинг лингвопоэтик асослари. Фил. фан. бўйича фал. док. ... дисс. – Тошкент: 2020. – Б.15.

³ Мулласодиқова Н. М. Қуръонда “маъоний илми”нинг лингвопоэтик асослари. Фил. фан. бўйича фал. док. ... дисс. – Тошкент: 2020. – Б.95-96.

⁴ Мулласодиқова Н. Балогат илми билимдони // Ислом тафаккури (илмий-маърифий, диний-маданий, аборо́т нашри). 2-сон. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2019. – Б.46.



“Mukoshafatu-l-qulub” asarida jumlalarining berilishida sharoit taqozo qilgan holatlar inobatga olinganligini ko‘rish mumkin. Maoniy ilmida gaplar nahv ilmidan farqli ravishda holat taqozosiga – مقتضى الحال mos kelishiga ko‘ra tasnif qilinadi. Holat taqozosi esa asosan ikki omil bilan belgilanadi: 1. So‘zlovchining maqsadi. Bu o‘zbek uslubshunosligidagi “ifoda maqsadi” tushunchasiga to‘g‘ri keladi. 2. Tinglovchining holati. O‘zbek uslubshunosligida gaplar tasnif qilinganida tinglovchining holati hisobga olinmaydi. Arab balog‘at ilmidan esa bu juda muhim omil sanaladi va gaplarga so‘zlovchi tinglovchining holatini hisobga olgan yoki olmaganligi nuqtai nazaridan baho beriladi⁵.

Balog‘atning ilmi maoniy nomli bo‘limida jumlar berilishining ikki turi: xabar va insho jumlar haqida so‘z boradi. Kalomni to‘g‘ri tuzish, nutqni tinglovchi uchun tushunarli, aniq va foydali bo‘lishini ta‘minlash borasida xabar va insho jumlarini to‘g‘ri tuzishning ahamiyati kattadir.

Dastlab “Mukoshafatu-l-qulub” asaridagi xabar jumalarga to‘xtalish o‘rinlidir. “Xabar” atamasi xabar, darak, ma‘lumot kabi ma’nolarni anglatadi. Xabar – haqiqat yoki yolg‘onni ifodalovchi gapdir. Xabar ikki xil holatda yetkaziladi⁶.

“Mukoshafatu-l-qulub” asaridan olingan quyidagi jumlada G‘azzoliy Alloh taolodan qo‘rqishning yettita belgisi borligi haqida so‘z yuritadi va bu fakt tinglovchi uchun yangilik bo‘lganligi sababli, u bu gapdan, ya‘ni xabardan o‘ziga muayyan foyda oladi. Ya‘ni birinchi holatda gapda ifodalangan hukm tinglovchi uchun noma‘lum bo‘ladi, bu holatga “xabarning foydasi” – فائدة الخبر (fā‘idatu-l-xabar) deyiladi.

Masalan:

علامة خوف الله تعالى تظهر في سبعة أشياء [MQ:9]⁷

Tarjimasi: Alloh Taolodan qo‘rqishning belgisi yetti narsada ko‘rinadi.

⁵ Мулласодиқова Н. Маоний илмида гап ва унинг турлари // Ислом зиёси. 2-сон. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2019. – Б.72.

⁶ Rustamiy S. Balog‘at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – Б.38; أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. المكتبة العصرية. صيدا – بيروت. 2004. ص. 64.

⁷ أبو حامد الغزالي. مكاشفة القلوب. القاهرة: دار الحديث. تحقيق أحمد جاد. 2004. ص. 9. [MQ:sahifa raqami] shaklida beriladi).



G‘azzoliy asaridagi quyidagi jumla ikkinchi holatga misol bo‘ladi, undagi mo‘min va zohid odamning qiyomat kuni xursand bo‘lishi haqidagi xabar so‘zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham yangilik emas. Ya’ni xabar yetkazilishining ikkinchi holatida gapda ifodalangan hukm so‘zlovchiga ham, tinglovchiga ham ma’lum bo‘ladi, bu holatga “foydaning zaruriyati” – lāzimatu-l-fāida (لازمة الفائدة) deyiladi.

Masalan:

[MQ:9] فيفرح المؤمن و الزاهد

Tarjimasi: (Qiyomat kuni) mo‘min va zohid kishi quvonadi.

“Mukoshafatu-l-qulub” asarida xabar jumalarning o‘zi ifodalayotgan maqsadiga ko‘ra turlari muallif tomondan mohirona qo‘llangan, masalan bular: o‘jizlik va rozilikni bildirish, narsalar, darajalar orasidagi farq va tafovutni ko‘rsatish, tanbeh berish, amalga oshirish kerak bo‘lgan ishga yo‘naltirish, hosil bo‘lgan yaxshi holatdan quvonish, rahm-shafqat istash, faxrlanish, biror holatdan hasrat qilish, madh qilish, ehtiyotkorlikni ifodalovchi xabar jumlar. Quyida ularning ayrimlariga misollar keltiriladi:

- o‘jizlik va rozilikni bildiruvchi jumlar, masalan asarning ikkinchi bobida keltirilgan bir hikoyadan olingan quyidagi jumlada ochlikdan qiynalayotgan bolalarning onasiga qarata aytgan ushbu gapida o‘jizlik va imkonsizlikdan noliish aks etganligini ko‘rish mumkin:

[MQ:11] يا أمي نحن نموت من الجوع

Tarjimasi: Onajon, biz ochlikdan o‘lyapmiz.

- hasrat qilishni ifodalaydigan xabar jumlar, masalan:

[MQ:12] فأنا أحقّ بالخوف منك

Tarjimasi: Sendan ko‘ra ko‘proq men qo‘rqishim kerak aslida.

Ushbu jumlada Allohdan qo‘rqish haqida so‘z boryapti. Mazkur misol “Mukoshafatu-l-qulub” asarida keltirilgan hikoyadan olingan. Hikoya qahramoni mana shu so‘zlarni aytgach, Allohga tavba qiladi va qilgan gunohini yuvish uchun xayr-ehsonlar beradi.



- narsalar, darajalar orasidagi farq va tafovutni ko'rsatuvchi xabar jumlar. "Mukoshafatu-l-qulub" asarining "في الرياضة والشهوة النفسانية" ("Riyozaat chekish va havoyi nafs haqida") deb ataluvchi to'rtinchi bobida riyozaat va nafsni jilovlash haqida so'z boradi. Bunda muallif riyozaat tushunchasiga ta'rif beradi: riyozaat bu – kam so'zlash, kam uxlash va kam yeyishdir. Quyidagi misolda esa ko'p yeyish va ochko'zlik singari salbiy illatlar bilan birga fahm, idrok, ilm kabi ijobiy tushunchalar o'zaro solishtirilib, ular orasidagi tafovut aniq ko'rsatib berilgan. Shu bois ushbu jumlaning xabarning farqni keltiruvchi turiga misol bo'la oladi deyish mumkin:

[MQ:18] وفي كثرة الأكل قلة الفهم والعلم، فإنّ البطنة تُذهب الفطنة

Tarjimasi: Ko'p yeyishdan fahm va ilm kamayadi, ochko'zlik idrokni ketkazadi.

- tanbeh berishni ifodalovchi xabar jumlar, masalan:

[MQ:16] من لم يرض بقضائي ولم يشكر لعطائي فيطلب ربّاً سواي

Tarjimasi: Kim Mening taqdirimga rozi bo'lmasa va berganimga shukr qilmasa, o'ziga Mendan boshqa iloh topsin.

Yuqoridagi tanbeh ma'nosidagi jumla hadisi qudsiydan olingan bo'lib, unda Allohning so'zi keltirilgan. Ushbu hadis "Mukoshafatu-l-qulub" asarining "Sabr va xastalik" nomli bobida fikr isboti uchun keltirilgan.

- amalga oshirish kerak bo'lgan ishga yo'naltirish, masalan:

[MQ:9] ولا تداوي أمراض القلوب إلا بالعلم والعمل

Tarjimasi: Qalb xastalıkları ilm va amalsiz tuzalmaydi.

"Mukoshafatu-l-qulub" asarida kalomni hosil qilishda jumlalarining ko'zlanayotgan fikrni ifodalay oladigan darajada yetarli bo'lishiga ham e'tibor qaratilgan. Nutqni tashkil qiluvchi gaplar zaruriy miqdorda bo'lishi kerak, ya'ni befoyda bo'lmasligi uchun ko'p bo'lmasligi yoki ko'zlangan maqsadni ifodalay olmaydigan darajada kam bo'lmasligi lozim. Bunday holatga balog'atning maoniy ilmida "ifodali so'zlash va bayon qilish" (al-



ifsāh va-l-bayān – الإفصاح والبيان) deb ataladi⁸. Bunda tinglovchining holatidan kelib chiqiladi. Ya'ni "so'zlovchi tinglovchining holatini, albatta, hisobga olishi shart. Tinglovchi esa asosan uch holatda bo'ladi⁹: 1. Bexabar (خالي الذهن); 2. Ikkilanuvchi (متردد); 3. Inkor etuvchi (منكر). Tinglovchining holatidan kelib chiqib fikrni yetkazishda xabarni ifodalashning quyidagi uchta turidan foydalaniladi:

1. "Mukoshafatu-l-qulub" asarida xabarni ifodalashning boshlang'ich ko'rinishi mazmunga munosib o'rinlarda, ya'ni o'quvchi uchun yangi axborot yetkazilayotgan jumalarda qo'llanilgan. Masalan:

الجهاد على ثلاثة أصناف: جهاد مع الكفار ، جهاد مع أصحاب الباطل بالعلم و الحجة ، جهاد مع النفس الأمارة بالسوء
[MQ:20]

Tarjimasi: Jihod uch turli bo'ladi: kofirlar bilan kurash, yolg'onchilar bilan ilm va hujjat orqali kurash, yomonlikka buyuruvchi nafs bilan kurash.

Ushbu misoldagi xabar tinglovchi uchun yangilik, tinglovchi bu ma'lumotni ilk bora eshitdi va bildi, shu bois hech bir ta'kidga ehtiyoj yo'q. Xabarni ifodalashning boshlang'ich ko'rinishida tinglovchi xabarning dalilini bilmasa, xabarga shubha qilmasa yoki inkor etmasligi aniq bo'lsa, xabar tinglovchiga hech qanday ta'kidlarsiz yetkaziladi. Xabarning bu turi "boshlang'ich" (ibtidā'iy - ابتدائي) deyiladi. Tinglovchi esa o'zining bu holatiga ko'ra axborotdan "bexabar (خالي الذهن)" deb ataladi.

2. "Mukoshafatu-l-qulub" asarida xabarni ifodalashning ikkinchi talabli ko'rinishi, ya'ni ta'kidli xabar jumalar ham ko'p o'rinlarda qo'llangan. Bunda tinglovchi berilayotgan ma'lumotdan xabardor, lekin unga shubha qilayotgan, ikkilanayotgan va xabarning rostligini bilish uchun dalil qidirayotgan bo'ladi, shunda xabarning mazmuniga urg'u berib, ta'kidlab ifodalash kerak bo'ladi. Shu bois bu holatda tinglovchi "ikkilanuvchi (متردد)" deb ataladi. Xabarning mazkur turi "talabli" (ṭalabiy - طلبى) deyiladi. Masalan:

⁸ أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. المكتبة العصرية. صيدا – بيروت. 2004. ص. 67. Rustamiy S. Balog'at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – B.38.

⁹ Bu haqida qarang: Муллаасодикова Н. М. Қуръонда "маъоний илми"нинг лингвопоэтик асослари. Фил. фан. бўйича фал. док. ... дисс. – Тошкент; 2020. – Б.104-106.



[MQ:18] فإن القلب يموت كالزراع إذا كثر عليه الماء

Tarjimasi: Darhaqiqat, qalb ekinga o‘xshaydi, unga ko‘p suv quyilsa o‘ladi.

Ushbu misolda qalbning ekinga o‘xshashligiga **إن** ta’kid yuklamasi orqali urg‘u berilyapti va gapda qalbning ekinga o‘xshashligi haqidagi hukm الماء إذا كثر عليه الماء (ko‘p suv quyilsa) jumlasini orqali dalillanyapti.

3. “Mukoshafatu-l-qulub” asarida xabarni ifodalashning inkoriy ko‘rinishi, ya’ni kuchli ta’kidli xabar jumlar ham ko‘plab o‘rinlarda kelgan. Bunda tinglovchi xabarda ifodalanayotgan ma’lumotni biladi, lekin uni inkor qiladi va uning aksiga ishonadi, shuning uchun so‘zlovchi tinglovchidagi inkorning kuchli yoki kuchsizligini inobatga olib, o‘z xabarini bir yoki bir necha ta’kid bilan yetkazishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun bu holatda tinglovchi “inkor etuvchi (منكر)” deb ataladi. Xabarning bu turi inkoriy (inkāriy - إنكاري) deyiladi. Bunday gaplarda ta’kidni bildiruvchi **أَنَّ** ، **إِنَّ** ، **يُنْكَرُ** yuklamalari, و ، **لَا** kabi qasam yuklamalari, fe’lga qo‘shiladigan tashdidli ta’kid “nun”i, gapning boshida keladigan **لَا** ta’kid yuklamasi kabilar qo‘llanadi. Masalan:

[MQ:17] وإنما يتقوى عليك الشيطان بهوى النفس وشهواتها

Tarjimasi: Albattaki, shayton nafsingning hoyu havasi orqali hatto sendan ham o‘zib ketgusidir.

Ushbu misolda **إِنَّمَا** ta’kid yuklamasi orqali agar inson o‘z orzu-havaslariga berilsa, shayton undan ham ustun kelishi ta’kid bilan ifodalanyapti.

“Mukoshafatu-l-qulub” asarida xabarning ismiy va fe’liy jumla turlari mahorat bilan berilgani asardan olingan misollar orqali quyida tahlil qilinadi. Xabarning kesimi fe’l yoki ism so‘z turkumidagi so‘z bilan ifodalanganligiga ko‘ra ismiy va fe’liy jumla kabi ikki turga bo‘linadi.

1. “Mukoshafatu-l-qulub” asari matnining deyarli yarmi ismiy jumla asosiga qurilgan. Ismiy jumla (jumla ismiyya - جملة اسمية) bu – ega (mubtada’ - مبتدأ) hamda ism so‘z turkumiga mansub so‘z bilan ifodalangan otkesim (xabar – خبر) dan tashkil topgan gapdir. Bunda kesimning zamonga ishora qilishi kuzatilmaydi. Masalan:



هو أعلم [MQ:15]

Tarjimasi: U eng yaxshi biluvchidir.

Mazkur misolda *u* (هو) III shaxs birlik muzakkar jinsdagi kishilik olmoshi ismiy jumlaning egasi (مبتدأ), eng yaxshi biluvchi (أعلم) soʻzi gapning ot kesimi (خبر) dir.

“Mukoshafatu-l-qulub” asarining “في حق الزوجة على الزوج” (“Xotinning eridagi haqlari”) nomli toʻqson toʻrtinchi bobi xotinning eridagi haqlari bayoniga bagʻishlangan. Gʻazzoliy ushbu bobni quyidagi soʻzlar bilan boshlaydi:

حقوق الزوجات على الأزواج كثيرة منها حسن الخلق معهن ، واحتمال الأذى منهن ترحمنا عليهن لقصور عقلمن

[MQ:289]

Tarjimasi: Xotinlarning erlarida huquqlari koʻpdir, shulardan biri erlar ayollariga nisbatan yaxshi xulqda boʻlishlari, ayol zotining erkaklarga nisbatan zaif ekanliklarini inobatga olgan holda, ular bergan baʼzi aziyatlarga chidash bilan ularga rahm qilishlaridir.

Ushbu misolda حقوق الزوجات (xotinlarning huquqlari) birikmasi ismiy jumlaning egasi (مبتدأ) boʻlib kelgan, كثيرة (koʻp) soʻzi esa gapning ot kesimi (خبر) dir.

2. “Mukoshafatu-l-qulub” asarida feʼliy jumlalarining oʻrni beqiyosdir. Feʼliy jumla (jumla feʼliyya – جملة فعلية) aniq nisbatdagi feʼliy kesim (feʼl - فعل) va ega (fāʼil - فاعل) dan tashkil topadi yoki majhul nisbatdagi feʼliy kesim (feʼl - فعل) va uning egasi (nāʼib fāʼil - نائب فاعل) dan iborat boʻladi. Bunda kesimning uchta zamondan biriga ishora qilishini koʻrish mumkin. Masalan:

فسكتت المرأة [MQ:11]

Tarjimasi: Ayol sukut qildi.

Mazkur jumlada ayol (المرأة) soʻzi gapning ega (فاعل) si, u aniq holatda (ال artiklini olgan), sukut qildi (سكتت) soʻzi esa aniq nisbatdagi oʻtgan zamon feʼli bilan ifodalangan feʼl kesim (فعل) dir.

فيتولد من قلة المنام صفو الإرادات [MQ:18]

Tarjimasi: Uyquni kamaytirishdan xohish-istaklarning pokligi tugʻiladi.



Mazkur misolda kam uxlagan odamning har turli orzu-havaslariga berilmasligi haqida soʻz bormoqda. Ushbu jumlada يتولد (tugʻiladi) soʻzi oʻtgan zamon majhul nisbat feʼli bilan ifodalangan gapning feʼliy kesimi (فعل) dir, صفر (pokligi) soʻzi gapning egasi (نائب فاعل) dir. Maoniy ilmida xabar jumalardan soʻng insho jumlar oʻrganiladi. “Mukoshafatu-l-qulub” asari tilining oʻziga xos uslubi asardagi bayonning sodda, aniq va tushunarli tarzda berilganligi bilan izohlanadi. Bu uslubni maoniy ilmidagi insho jumlar mavzusi hamda asardan olingan misollar tahlili orqali aniqlash mumkin. Taʼkidlanganidek, maoniy ilmida kalomning xabardan tashqari insho nomli turi haqida ham soʻz boradi. “Insho” soʻzi balogʻat ilmidagi termin sifatida “rost yoki yolgʻon hukmi berilmaydigan kalom”¹⁰ga nisbatan ishlatiladi. Masalan:

نُورُوا قُلُوبَكُمْ بِالْجُودِ [MQ:18]

Tarjimasi: Qalblaringizni ochlik bilan nurlantiring.

Mazkur gap xususida yolgʻon yoki rost aytilgan degan hukmni aytish mumkin emas. Shu sababli ham bu jumla kalomning insho turiga misol boʻladi.

Insho jumlarning ikki turi farqlanadi. Bular: talabli insho (إنشاء طلبي) va talabsiz insho (إنشاء غير طلبي). Talabli insho deganda, “talab qilingan ish-harakatning talab vaqtidan qatʼiy nazar amalga oshishi”¹¹ nazarda tutiladigan jumla tushuniladi. Talabli inshoning buyruq, inkor, soʻroq, istak, undov singari beshta turi mavjud va Gʻazzoliyning “Mukoshafatu-l-qulub” asarida mazkur beshta turdagi talabli insho jumalarga misollar talaygina topiladi, bu masala quyida batafsil yoritiladi.

1. Buyruq (امر - الأمر) gap, bunda tinglovchidan muayyan ishni bajarish qatʼiyan talab qilinadi. Arab tilida buyruq gap berilishining toʻrt usuli mavjud boʻlib, bular: 1) buyruq maylidagi feʼl; 2) buyruqni ifodalovchi “lam” yuklamasi bilan keladigan jazm holatidagi hozirgi zamon feʼli; 3) buyruq feʼlining ismi; 4) buyruq feʼli oʻrnida kelgan masdar, yaʼni

¹⁰ 84. ص. 2004. بيروت. صيدا – بيروت. المكتبة العصرية. صيدا – بيروت. Rustamiy S. Balogʻat ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – B.41.

¹¹ Rustamiy S. Balogʻat ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – B.43.



harakat nomi¹². Quyidagi jumla buyruq maylidagi fe'lga misol bo'la oladi, unda III shaxs ko'plik muzakkar buyruq maylidagi جاهدوا (jihod qilinglar) fe'li qo'llangan:

و جاهدوا أنفسكم بالجوع و العطش [MQ:18]

Tarjimasi: Ochlik va tashnalikni qurol qilib, nafsingizga qarshi jihod qilinglar.

ولتتظر نفس ما قدمت لعد [MQ:17]

Tarjimasi: (Har bir) jon (egasi) ertangi kun (qiyomat) uchun (qanday amalni) taqdim etganiga qarasin.

Mazkur jumlada buyruqni ifodalovchi "lam" yuklamasi bilan keladigan jazm holatidagi (ya'ni hozirgi kelasi zamon fe'lining oxiridagi damma harakatining sukun bo'lishi) تنتظر (qarasin) fe'li qo'llangan. G'azzoliy o'z so'zlarini tasdiqlash, dalillash uchun Qur'on oyatlari va hadislardan keng foydalangan. Ushbu jumla ham Qur'oni karimning Hashr surasi 18-oyatidan olingan.

2. Inkor (nahy - النَّهْي) gap. Bu turdagi insho jumlar buyruq maylining bo'lishsiz shakli orqali ifodalanadi. Bunda biror ish-harakatni qilmaslik talab qilinadi. Inkor hozirgi zamon fe'lining jazm holati, ya'ni oxirgi harakati sukunlangan shakli oldidan birgina لا yuklamasining berilishi orqali ifodalanadi. Bu shakl kontekstga qarab, duo, iltimos, irshod, davom, oqibat bayoni, afsus, istak, tahdid, karohat, tanbeh, tahqir kabi ma'nolarni ham anglatadi¹³. Quyida irshod, ya'ni insonni to'g'ri yo'lga solish va yo'naltirish ma'nosida qo'llangan inkor fe'llar ko'rib chiqiladi:

و لا تقنطوا من رحمة الله [MQ:10]

Tarjimasi: Allohning rahmatidan noumid bo'lmangiz.

Mazkur misol Misr nashrida Shuro surasining 28-oyatidan deb ko'rsatilgan. Holbuki, ushbu jumla Qur'oni karimning Zumar surasi 53-oyatidan olingan. G'azzoliy bu gapni asarning "في بيان الخوف" ("Qo'rquv bayonida") nomli bobida o'z fikrlarini dalillash uchun keltirgan. Yuqoridagi لا تقنطوا (noumid bo'lmangiz) inkor fe'li gapning mazmunini irshod

¹² 87-86. ص. 2004. بيروت. صيدا – المكتبة العصرية. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. أحمد الهاشمي. Rustamiy S. Balog'at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – B.43.

¹³ 93-92. ص. 2004. بيروت. صيدا – المكتبة العصرية. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. أحمد الهاشمي.



ekanligini ko'rsatuvchi bosh omil vazifasini bajargan. Shu bois ushbu jumla o'z mazmuni orqali insonni to'g'ri yo'ldan yurishga da'vat qiladi. Quyidagi misolda esa لا تكثر (ko'paytirma) buyruqning bo'lishsiz shakli berilgan va jumla o'z mazmuni orqali inkorning tanbeh ma'nosidagi jummlar turiga mos keladi:

لا تكثر النوم و الأكل [MQ:18]

Tarjimasi: Uxlash va yeyishni ko'paytirma.

Duo ma'nosini anglatuvchi inkor fe'llarga misol:

اللهم قطعني عن والدي و أولادي و زوجتي، فلا تقطعني من رحمتك فإنك أحرقت قلبي بفراقهم فلا تحرقني بنارك لأجل معصيتي [MQ:16-17]

Tarjimasi: Alloh, ota-onamni, bolalarimni va rafiqamni mendan ayirding. Endi rahmatingdan meni mosuvo qilma. Sen qalbmni ularning firoqi bilan yoqding, endi gunohlarim tufayli meni jahannamingda yoqma.

Mazkur misol asarda keltirilgan bir hikoyatdan olingan. Unda kelgan لا تقطعني (mosuvo qilma) va لا تحرقني (yoqma) kabi inkor fe'llari yuqoridagi ikki jumlada ham duo ma'nosida qo'llangan.

لا تُميتوا القلوب بكثرة الطعام والشراب [MQ:18]

Tarjimasi: Yeyish va ichishni ko'paytirish bilan qalblarni o'ldirmang.

Mazkur jumlada qo'llangan لا تُميتوا (o'ldirmang) fe'li gapning oqibat bayoni ma'nosidagi inkor jumlalarga misol bo'la olishini anglatadi, ya'ni ushbu jumlada taom va sharobni ko'paytirish oqibatida qalblarning o'lishi sodir bo'ladi va bu holatning oldini olish uchun shu ishni qilmaslik kerakligi aytilmoqda.

3. So'roq (istifhām - الاستفهام). So'roq gaplar oldin noma'lum bo'lgan narsa haqida bilish uchun qo'llaniladi. So'roq gaplar o'z talabiga ko'ra uch turga bo'linadi. Bular:

a) javobida tasdiqlash yoki bayon qilish, tasvirlash talab qilinadigan so'roq gaplar. Bunday gaplarda (-mi) so'roq yuklamasi qo'llaniladi. Masalan:

ما تقول في الله تعالى أنائم في هذه الساعة؟ [MQ:11]

Tarjimasi: Alloh taolo haqida nima deysan, u ham shu soatda uxlayotganmikin?



Ushbu so‘roq gapda Alloh taoloning ayni soatda uxlayotgan yoki uxlamayotganligi haqida so‘rallyapti. Alloh taoloning hech qachon uxlamasligini inobatga olsak, mazkur jumla haqida ritorik so‘roq gap, ya‘ni javob talab qilinmaydigan, javobi tinglovchiga ma‘lum bo‘lgan savol jumla deya xulosa berish mumkin. Shunda ushbu savolning javobi uchun “yo‘q” degan so‘z tasdiqlash uchungina aytilsa kifoya.

b) javobida faqat tasdiqlash talab qilinadigan so‘roq gaplar. Bunday gaplarda هل (-mi) so‘roq yuklamasi qo‘llaniladi. Masalan:

[MQ:13] سلام عليكم يا عبادي فقد رضيت عنكم فهل رضيتم عني؟

Tarjimasi: Sizlarga salom bo‘lsin, ey bandalarim, Men sizlardan roziman, sizlar-chi, Mendan rozimisizlar?

Mazkur misol hadisdan olingan, unda Allohning o‘z bandalariga xitoban aytgan gapi berilgan. Ma‘lumki, Alloh barcha narsani o‘ta yaxshi biluvchi Zotdir, ya‘ni Alloh bandalari Undan rozi yoki rozi emasliklarini juda yaxshi biladi. Shunday bo‘lsa-da, U bandalaridan o‘z roziliklarini tasdiqlab aytishlarini istagani uchungina shu savol bilan murojaat qilyapti. Bu yerda so‘roq gaplarning التّعظيم (ta‘zim), ya‘ni ulug‘lash ma‘nosi anglashilishi ma‘lum bo‘ladi. Ya‘ni Alloh o‘zining roziligiga erishgan suyuqli va xos bandalarigagina shunday savol bilan murojaat qilishi mumkin, chunki Alloh bu bilan mazkur xos bandalarini ulug‘layapti.

c) javobida faqat bayon qilish, tasvirlash talab qilinadigan so‘roq gaplar. Bunday gaplarda quyidagi maxsus so‘roq olmoshlari qo‘llaniladi:

- كَمْ (nechta, qancha) miqdorni so‘rashda;
- لِمَاذَا ، لِمَ (nega, nima sababdan) sababni so‘rashda;
- أَنَّى ، كَيْفَ (qanday, qanday qilib) holatni so‘rashda;
- أَيَّْانَ ، مَتَى (qachon, qaysi payt) vaqt, muddatni so‘rashda;
- أَيْنَ (qayerda) joy-makon haqida so‘rashda;
- مَنْ (kim) faqat insonlar haqida so‘rashda;
- مَا (nima) faqat narsa-predmetlar haqida so‘rashda.



Masalan:

[MQ:11] ما فعل الله بك؟

Tarjimasi: Alloh senga nima qildi?

[MQ:13] يا ربنا كيف يرونك وقد كانوا عصاة؟

Tarjimasi: Robbimiz, ular qanday qilib Seni ko‘ra oladilar, axir gunohkor bo‘lsalar?

Mazkur so‘roq gapda farishtalar o‘z Robbilariga murojaat qilishmoqda, bunda ular savol so‘raganlaridan ham ko‘ra ko‘proq o‘z taajjublarini ifodalashayotganini ko‘rish mumkin. Shuning uchun ushbu jumlaning so‘roq gaplarning taajjub (التعجب) ni ifodalaydigan turiga misol bo‘la oladi deyish mumkin. Ya‘ni bunda gapning konstruksiyasiga ko‘ra so‘roq jumla (الجملة الاستفهامية) bo‘lsa ham, gapning semantikasiga ko‘ra taajjubni ifodalaydigan jumla bo‘ladi.

[MQ:14] لم لا تصبر للبلاء؟

Tarjimasi: Nega musibatga sabr qilmaysan?

[MQ:20] ومن أين عرفتني؟

Tarjimasi: Meni qayerdan bilding?

Abu Homid G‘azzoliyning “Mukoshafatu-l-qulub” asaridan olingan yuqoridagi gaplarda ومن أين so‘roq olmoshlari qo‘llangan. Bunday so‘roq gaplarning javobi uchun aniq bayon talab qilinadi.

4. Istak (tamannā - التمني) gaplar biror istalgan narsani talab qilishda qo‘llaniladi. Istak gaplarning amalga oshishi va oshmasligiga ko‘ra ikki turi farqlanadi: amalga oshishi mumkin bo‘lgan (mumkin – ممكن) va amalga oshishi imkonsiz bo‘lgan (mustahil - مستحيل)¹⁴.

Istak jumlalarining signal so‘zlari quyidagilar: لو ، هل ، لعل ، ليت . Masalan:

[MQ:13] يا ليتني كنت تبنة و لم أك شيئاً مذكورا، يا ليتني لم تلدني أُمي

Tarjimasi: Koshki somon yoki eslanmaydigan biror narsa bo‘lsaydim, koshki onam meni tug‘magan bo‘lsaydi.

¹⁴ Rustamiy S. Balog‘at ilmi. – Tashkent: Zilol buloq, 2020. – B.44. ; أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. المكتبة العصرية. صيدا – بيروت. 2004. ص. 113.



Ushbu ikki jumlada *koshki* ma'nosini anglatuvchi ليت istak yuklamasi qo'llangan. Mazkur gaplar istakning amalga oshishi imkonsiz bo'lgan (mustahil - مستحيل) turiga misol bo'ladi. Chunki so'zlovchining somon yoki eslanmaydigan narsa bo'lish va onadan tug'ilmaslik kabi istaklari hech qachon ro'yobga chiqmaydi.

Istakning amalga oshishi mumkin bo'lgan turiga misol:

لو كانت والدتي عند رأسي لرحمتي و لبكت على مذلتی ، ولو كان والدي حاضراً لأعانني و تولي أمري ، ولو كانت زوجتي حاضرة لبكت على فراقی ، و لو كان أولادي حاضرين عندي لبكوا خلف جنازتي [MQ:16]

Tarjimasi: Qani endi onam boshimda bo'lsa edi, mening bu xarob holimga achinib yig'lagan bo'lardi, qani endi otam yonimda bo'lsa edi, menga yordam bergan va ishimni hal qilgan bo'lardi, qani endi rafiqam bo'lsa edi, mendan yiroqligi uchun ko'z yosh to'kkan bo'lardi, qani endi bolalarim oldimda bo'lsalar edi, janozamda yig'lagan bo'lardilar.

Mazkur misol asarda keltirilgan bir hikoyatdan olingan. Ushbu gaplarda *qani endi*, *koshki* ma'nosidagi لو yuklamasi qo'llangan. Kontekstdan ma'lum bo'ldiki, ushbu jumla istakning ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan turiga mansubdir, chunki hikoya qahramoni shunday deb duo qilib zorlangach, Alloh uning duosini ijobat qiladi va yoniga ota-onasini, rafiqasini va bolalarini yuboradi.

5. Undov (nidā - النداء) gaplar. Bu kabi gaplarda *ey*, *ho*y ma'nosidagi undalmalar quyidagi sakkizta vosita orqali ifodalanadi: أ ، أي ، يا ، آ ، آي ، أيا ، هيا ، وآ

Mazkur vositalarning sifatiga ko'ra, ya'ni yaqinga yoki uzoqqa nisbatan ishlatilishiga ko'ra ikki turi mavjud. أي yuklamalari yaqinga, وآ ، أيا ، آي ، يا yuklamalari esa uzoqqa nisbatan ishlatiladi. Masalan:

[MQ:12] سلام عليكم يا عبادي فقد رضيت عنكم فهل رضيت عني؟

Tarjimasi: Sizlarga salom bo'lsin, ey bandalarim, Men sizlardan roziman, sizlarchi, Mendan rozimisizlar?

[MQ:14] يا شجرة أدخلني فيك

Tarjimasi: Ey daraxt, meni o'z bag'ringga ol.



Birinchi jumlada ey (يا) yuklamasi birinchi shaxs birlik egalik qo'shimchasi qo'shilgan bandalarim (عبادي) so'zi bilan birga, ikkinchi jumlada esa noaniq holatda va damma harakati bilan tugagan daraxt (شجرة) so'zi bilan birga qo'llangan.

Insho jumlalarining ikkinchi turi talabsiz insho (إنشاء غير طلبي) deb ataladi. Talabsiz inshoda so'ralayotgan narsaning ma'lum muddatda amalga oshishi talab qilinmaydi, talabning bajarilishi talabga bog'liq bo'lmaydi. Talabsiz insho jumlalarining beshta turi mavjud¹⁵: taajjub, iltimos, maqtash yoki yomon deb bilish, qasam, kelishuv.

Maqtash yoki yomon deb bilish (madh va zamm - المدح والذم) ma'nosidagi insho jumlar "Mukoshafatu-l-qulub" asarida faol qo'llangan. Maqtashda qanday yaxshi ma'nosidagi حبذا so'zlari, yomon deb bilishni ifodalashda qanday yomon, yaxshi emas ma'nosidagi لا حبذا so'zlari, shuningdek, طاب فَعْلٌ vaznidagi (yaxshi bo'lmoq), خبث (yomon bo'lmoq) fe'llari qo'llanadi. Masalan:

وطاب قلبه ووصل إلي رحمة الله تعالى طاهرا مغفورا له [MQ:15]

Tarjimasi: Uning qalbi qanday ham pok, shu bois u gunohlari afv etilgan holda Alloh taoloning rahmatiga musharraf bo'ldi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Abu Homid G'azzoliyning "Mukoshafatu-l-qulub" asarida gapning xabar va insho turlaridan keng va unumli foydalanilgan. Xususan, muallif nutqida, fikr isboti sifatida keltirilgan Qur'oni karim oyatlari, hadisi shariflardan olingan iqtiboslarda va asar matnida keltirilgan hikoyatlarda ko'p uchraydi. Ushbu jumlar asarda nutqning o'quvchiga emotsional ta'sir etish, xabar yetkazish, insonni to'g'ri yo'lga boshlash vazifalarini bajarishga yordam bergan.

¹⁵ .84. ص. 2004. بيروت. صيدا - المكتبة العصرية. صيدا - البيان والبدیع. المکتبة العصرية. صیدا - بیروت. 2004. ص. 84. Rustamiy S. Balog'at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – B.41.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rustamiy S. Balog`at ilmi. – Toshkent: Zilol buloq, 2020. – 156 b.
2. Мулласодиқова Н. М. Қуръонда “маъоний илми”нинг лингвопоэтик асослари. Фил. фан. бўйича фал. док. ... дисс. – Тошкент; 2020. – 172 б.
3. Мулласодиқова Н. Балоғат илми билимдони // Ислом тафаккури (илмий-маърифий, диний-маданий, ахборот нашри). 2-сон. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2019. – Б. 45-47.
4. Мулласодиқова Н. Маоний илмида гап ва унинг турлари // Ислом зиёси. 2-сон. – Тошкент: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2019. – Б. 71-75.
5. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. المكتبة العصرية. صيدا – بيروت. 2004. 408 ص.
6. أبو حامد الغزالي. مكاشفة القلوب. القاهرة. دار الحديث. تحقيق أحمد جاد. 2004. 416 ص.
7. حامد عوني. المنهاج للبلاغة. الجزء الثاني. دار الكتاب العربي بمصر. 1953.